

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil. 83.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SAYDULLAYEVA XUSNORA UTKIROVNA**

**KONCHILIK YO‘NALISHI TALABALARIDA INGLIZ TILINI  
O‘QITISHDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Saydullayeva Xusnora Utkirovna**

Konchilik yo‘nalishi talabalarida ingliz tilini o‘qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi..... 3

**Сайдуллаева Хуснора Уткировна**

Методика развития лексической компетенции студентов горного направления при обучении английскому языку ..... 29

**Saydullaeva Khusnora Utkirovna**

Methodology applied for the development of lexical competence in the process of teaching English for the students of mining direction ..... 57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 62

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil. 83.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SAYDULLAYEVA XUSNORA UTKIROVNA**

**KONCHILIK YO‘NALISHI TALABALARIDA INGLIZ TILINI  
O‘QITISHDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped 2271 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xoshimova Dildora Urinboyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Yetakchi tashkilot:**

\_\_\_\_\_

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_  
dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866)233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info.@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866)233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info.@samdhti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Yaxshiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik  
ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari  
doktori (DSc), professor.

**G'.Q.Mirsanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), dotsent

**Sh.S.Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda hozirgi olamshumul ilmiy taraqqiyot asrida ilm-fan va ishlab chiqarishda integratsiyalashgan jarayonning jadal takomillashuvi, ta'limning har bir sohasida shaxsning shakllanib borish tamoyillarini namoyon qilish, hayotiy zaruratlar bilan kasbga bog'liq ilmiy tadqiqotlar, milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrash va kelajak avlodga yetkazish, ijobiy muhitni yaratish, iqtisodiy va diplomatik hamkorlik uchun kommunikatsiyani o'rnatish vositasi sifatida ingliz tili dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada YUNESKO, Yevropa Kengashi, ta'lim va madaniyat bo'yicha Yevropa Komissiyasi tomonidan turli tashkilotlar, qo'mitalar, assotsiatsiyalar, ilmiy-tekshirish institutlari tashkil etilib, CEFR hujjati yordamida ta'limning har bir bosqichida ingliz tilini o'zlashtirish darajasi va sifatini takomillashtirib borish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyo ta'lim tajribasida ko'rilgan ilmiy tadqiqot muassasalari, jumladan, Fransiya (Université Savoie-Mont Blanc, Chambéry, France), Ispaniya (Universidad Católica), AQSh (University of Chicago), Germaniya (North Rhine-Westphalia University) hamda Finlandiya (University of Jyväskylä) kabi rivojlangan ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini kengaytirish, talabalarning ijtimoiy, lingvistik bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, tilni uzluksiz o'rganishning nazariy asoslarini egallash hamda talabalarni soha yuzasidan til kompetensiyalarini rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholining ijtimoiy hayotida inson omili rolini kuchaytirish, ilm-fan ustuvorligini ta'minlash, maqsadli, intellektual kasbiy ijodiy faoliyatga jalb etish, talabalarning ingliz tilini bilish darajasini hisobga olgan holda umumiy kompetensiyalar, jumladan, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda hamda ingliz tilini muhandislik sohalarida zamonaviy yondashuvlar, metod va texnologiyalar asosida o'qitish, ayniqsa, STEAM (Science, Technology, Education, Art, Mathematics); CLIL (Content Language and Integrated Learning); CBI (Content Based Instruction); SBI (Subject Based Instruction), and TBI (Task Based Instruction) kabilar asosida o'rgatish ommalashib borayotgan konsepsiyalardan biridir. Mazkur texnologiyalar chet tili ta'limi kontenti bilan talabalarni tanishtirishda eng qulay va samarali ekanligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalardan foydalanish nofilologik ta'lim yo'nalishi, xususan, konchilik yo'nalishi talabalariga fanlararo integratsiyaga erishish va kasbiy fanlardan egallangan bilimlarni amaliyotda ingliz tili orqali qo'llashga imkon beradi. Shunday ekan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, lisey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari

faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”<sup>1</sup>. Chunonchi, talabalarning turli mavzularga oid axborotlar, turli fanlardan kerakli ma’lumotlarni to‘plash, ulardan nutqiy vaziyatlarga mos holda foydalanishda leksik material(matn)ning o‘rni ahamiyatlidir. Bu orqali leksik material yordamida konchilik yo‘nalishi talabalari kasbiy leksik kompetensiyasi rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Sohaviy manbalar asosida ingliz tilida talabalar kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish evaziga turli mutaxassislik fanlardan bilim, ko‘nikma va malakalarni uzviy bog‘lash bilan bir qatorda, ularning boshqa til kompetensiyalarini integrallashtirish imkoni ham tug‘iladi. Bu ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda, fanlardan egallangan bilimlarni amaliy jihatdan qo‘llashda dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘nggi yillarda ingliz tilini o‘qitish asosiy tamoyillardan biriga aylandi. Yevropa davlatlarida, xususan, Buyuk Britaniyada ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullangan Brayn Paltrij talabalarning o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan <sup>2</sup>. Shuningdek, Brayn yurtdoshi Enn Bernz sohaviy o‘quv adabiyotlari yordamida nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalari kasbiy leksik kompetensiyasini

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori // <https://darakchi.uz/oz/119207>

<sup>2</sup> Paltridge B. Discourse Analysis, 2-nd edition. – London: Bloomsbury Press, 2012. -297p.

rivojlantirishda o'qishning ahamiyati masalasini ilgari surgan<sup>3</sup>. Anjela Chambers qo'shimcha o'quv materiali tayyorlash orqali talabalar o'qish kompetensiyasini rivojlantirish g'oyasini qo'llab-quvvatlagan<sup>4</sup>. Yangi zelandiyalik tilshunos olim J.K. Richards ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish muammolari va yechimlariga bag'ishlangan bir qancha adabiyotlar yaratgan bo'lsa, britaniyalik lingvist olim Pol Neyshen o'zining bir qancha tadqiqotlarida ESP lug'ati haqida izlanishlar olib borganligiga guvoh bo'lamiz<sup>5</sup>. B.Avalos, F.Fayez, D.Littl, F.Odoyer, J.Trim, P.Valaks kabi qator olimlar bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda CEFRning ahamiyati haqida ilmiy va nazariy fikrlarni ilgari surishgan<sup>6</sup>. Ta'lim tizimida joriy etilishi bilan bog'liq muammolar hamda ularning yechimlari J.S.Alderson, Y.Jin, K.Savski, E.Shohami, J.Veyr, G.Vestof kabi olimlar ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan<sup>7</sup>.

Bugungi kungacha MDH davlatlari o'quv predmetlarini o'qitishda ingliz tili bilan integratsiyalash muammosining turli jihatlarini rus olimlaridan P.R.Atutov, S.Y.Batisheva, I.V.Belyayeva, V.N.Maksimova, M.I.Maxmutov, G.I.Ruzavin ishlarida ham yoritilgan<sup>8</sup>.

---

<sup>3</sup> Burns A., Khalifa H. Engaging action research to explore use of assessment for improving language ability // *Studies in Language Testing*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – P. 1–30. Burns A. Collaborative Action Research for English Language Teachers // *Collaborative Action Research for English Language Teachers*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. – P. 12–15.

<sup>4</sup> Chambers A. Language learning as discourse analysis: Implications for the LSP learning environment, *ASp* (online) 2007. – P. 51–52.

<sup>5</sup> Jack C. Richards. *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press. 32 Avenue of the Americas, New York, NY10013-2473, USA. // [www.cambridge.org](http://www.cambridge.org). Cambridge University Press 2006. – 52 p.; Nation P. *New Ways in Teaching Vocabulary*. Teachers of English to Speakers of Other Languages Publication, 1994. – 218 p.

<sup>6</sup> Avalos B. Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years // *Teaching and Teacher Education*, 27(6), 2011. – P. 10–20.; Faez F., Majhanovich S., Taylor S., Smith M., & Crowley K. The power of “Can Do” statements: Teachers’ perceptions of CEFR-informed instruction in French as a second language classrooms in Ontario // *The Canadian Journal of Applied Linguistics*, 14(2), 2011. – P. 1–19.; Little D. The Common European Framework of Reference for Languages: A research agenda // *Language Teaching*, 44(3), 2011. – P. 381–393.; Trim J. L. M. *Modern languages in the Council of Europe 1954–1997*. – Strasbourg: Council of Europe, 2007. – 57p.; Valax P. *The Common European Framework of Reference for languages: A critical analysis of its impact on a sample of teachers and curricula within and beyond Europe*. PhD diss. University of Waikato, 2011. – 453p.

<sup>7</sup> Alderson J.C., Figueras N., Kuijper H., Nold G., Takala S., & Tardieu C. Analysing tests of reading and listening in relation to the Common European Framework of Reference: the experience of the Dutch CEFR Construct Project // *Language Assessment Quarterly*, 3(1), 2006. – P. 3–30; Jin Y., Wu Z., Alderson J.C., & Song W. Developing the China Standards of English: Challenges at macropolitical and micropolitical levels // *Language Testing in Asia*, 7(12), 2017. – P. 1–20.; Savski K. Local problems and a global solution: examining the recontextualization of CEFR in Thai and Malaysian language policies // *Language Policy*, 2020. – P. 527–547.; Shohamy E. Assessing multilingual competencies: Adopting construct valid assessment policies // *Modern Language Journal*, 95(3), 2011. – P. 418–429; Weir J. C. Limitations of the Common European Framework for developing comparable examinations and tests. *Language Testing*, 22(3), 2005. – P. 1–20; Westhoff G., Challenges and opportunities of the CEFR for reimagining foreign language pedagogy // *The Modern Language Journal*, 91(4), 2007. – P. 676–679.

<sup>8</sup> Атутов П.Р. Политехническое образование школьников: Сближение общеобразовательной и профессиональной школы. Москва: Педагогика, 1986. – 176 с.; Батышева С.Я. Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. Издание 3-е, переработанное. – Москва: ЭГВЕС, 2009. – 456 с.; Беляева И.В., Нестеренко Е.Ю. Иностранный язык в сфере профессиональной коммуникации: комплексные учебные задания: Учебное пособие. – Екатеринбург: УФУ – 132 с.; Максимова В.Н. Меж предметные связи в процессе обучения /Москва: Просвещение, 1988. – 192 с.; Махмутов М.И. Современный урок. Вопросы теории: Монография. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Педагогика, 1986. – 184 с.; Рузавин Г.И. Концепции современного естествознания: Учебник для вузов. – Москва: ЮНИТИ, 2000. – 287 с.

Mamlakatimizda chet (ingliz) tilini o'qitishning umumiy metodik muammolari qatoriga sohaviy o'quv adabiyotlardan foydalangan holda o'qitish, xususan, bo'lg'usi chet tili o'qituvchilari hamda nofilologik yo'nalish talabalarining til va kasbiy kompetensiyalarini uyg'un holda takomillashtirish nazariyasi, uning ayrim muammoli jihatlarini L.T.Axmedova, R.X.Djurayev, M.Djusupov, J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, F.M.Rashidova, T.K.Sattarov, I.M.To'xtasinov, O'. Xoshimov, D.U.Xoshimova; ingliz tilini o'qitish metodikasi, ya'ni xususiy metodikaning turli sohalari F.Sh.Alimov, M.X.Gulyamova, B.G.Qulmatov; mustaqil ta'lim olish va talabalar mustaqil ishini tashkil etish N.A.Muslimov, Z.Nishonova, O.A.Qo'ysinov kabi olimlar ishlarida tadqiq qilingan<sup>9</sup>. Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni oshirishning axborot-metodik ta'minotini hamda ingliz tilini o'qitishda filolog talabalar kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish, talabalarda ijtimoiy-madaniy, lingvomadaniy kompetensiyalarni takomillashtirish masalalariga U.U.Jumanazarov, X.A.Mamatqulov, K.Sh.Muradkasimova, K.J.Riskulova, P.X.Omanov, S.A.Ziyayevalar ilmiy tadqiqot ishlarida urg'u berishgan<sup>10</sup>.

Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasiga, fanlararo integratsiyaga doir muammolar ustida ish olib borgan mutaxassislar, jumladan, nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalarining tanqidiy o'qish kompetensiyasini rivojlantirish G.N.Irmuhammedova, yuridik universitetlari talabalariga leksikani o'qitish V.I.Normuratova, fanlararo integratsiya muammolari D.M.Isroilova, qishloq xo'jaligi ta'lim yo'nalishi talabalariga leksik kompetensiyasini rivojlantirish

<sup>9</sup> Axmedova L.T. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Ташкент: Фан ва технология, 2009. -159с.; Джураев Р.Х., Иноятова М.Э. Вопросы внедрения в систему школьного образования педагогико-нравственного наследия Алишера Навои. Научный журнал: Педагогические науки. – Москва: Академия Естествознания, 2020. – С. 60-61.; Джусупов М., Социоллингвистические и лингводидактические проблемы языка как средства общения и предмета изучения //Русистика в СНГ. – Санкт-Петербург: Златоуст, 2002. – С. 64-74.; Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 434 b.; Makhamova G.T., Alimov Sh.S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English Language Teaching. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 232 b.; Sattarov T.K. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent, 2003. – B. 32-47; Tukhtasinov I.M. Expressing Stylistic Devices in Compound Words. – Ausbage: Eastern European Scientific Journal, 2018. – P. 49-55; Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'zDJTU. Sharq nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003. –301 b.; Хашимова Д.У. Роль электронного учебника в совершенствовании речевых навыков и умений в учебно-профессиональной сфере//Илmiy-metodik jurnal. – Toshkent: TDYUI, 2021, № 12-son. – С. 66-69.; Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув. Дис. ...PhD. – Тошкент, 2019. -84 б.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 45 b.; Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish: Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2006. – 56 б.; Nishonova Z., Qarshiyeva D. Eksperimental psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya. 2007, -92b.

<sup>10</sup> Jumanazarov U.U. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili oqituvchilarining linivistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan.dok. (DSc) ...diss.- Jizzax, 2021. -352 b.; Mamatqulov X.A. Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2007. – 159 b.; Muradkasimova A.Sh. Ingliz tilini o'qitishda talabalarining ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: Ped. fanlar. nomz. ... diss. – Toshkent, 2019. – 179 b.; Riskulova K.J. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: Ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 64 b.; Omanov P.X. Ingliz tilini o'qitishda talabalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini autentik videomateriallar vositasida rivojlantirish: Ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 54 b.; Ziyayeva S.A. Lingvistik oliy ta'lim muassasalari talabalarini nemis tilida o'qitishda sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish: Ped. fan. d-ri (DSc). ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 72 b.

masalalari B.H.Xoliyorov, klaster texnologiyasining ahamiyati N.X.Kushiyeva, yuridik talabalariga chet tilni o'rgatishda motivatsiyaning o'ri B.R.Samatovalarning ilmiy izlanishlarida batafsil yoritib berilgan<sup>11</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Navoiy davlat pedagogika institutining "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishida aniq belgilab berilgan vazifalarni hal etishga qaratilgan ishlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasini CLIL ta'lim texnologiyasi yordamida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz tilini o'qitish metodikasining nazariy jihatlarini kontekstli va elektron ta'lim integratsiyasi asosida ko'rib chiqish hamda ingliz tilini kontentga asoslangan holda o'rgatish zaruratini asoslash;

konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalarini kasbiy leksik kompetensiyasi kontenti va tarkibini yaratish hamda uni tanlash tamoyillarini aniqlash va boyitish;

konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalarini kasbiy leksik kompetensiyasi kontentini CLIL ta'lim texnologiyasi yordamida rivojlantirishning mavjud modellarini takomillashtirish;

konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishda kontent va til integratsiyasi – CLIL ta'lim texnologiyasiga asoslangan mashqlar tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasi kontentini CLIL ta'lim texnologiyasi yordamida rivojlantirish o'quv jarayoni tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalarini kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishning CLIL ta'lim texnologiyasi, mazmuni va tamoyillari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy (tahliliy-sintetik, taqqoslash, modellashtirish), diagnostika (anketa-so'rov, savol-javob, suhbat, test, kuzatish), pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil asosida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni qiyosiy-tahlil qilish, umumlashtirish, grafik-tasvirlash kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

<sup>11</sup>Irmukhamedova G.N. English as a medium of instruction in Uzbekistan. -Toshkent: JIDU, 2022. -B 29-33.; [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13280\\_1\\_4410C484DD11E5E3E694D66B919C7D20F57BF52E.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13280_1_4410C484DD11E5E3E694D66B919C7D20F57BF52E.pdf).; Normuratova V.I. Linguodidactics and Methods Theoretical Description of the Language for Learning Purposes// O'zbekistonda xorijiy tillar. – Toshkent: Foreign Language Education (Fledu.uz.), 2022. № 1 (42), – B. 68–81; D.M. Isroilova. Methodical foundations of the formation skills in teaching professionally oriented English Namangan: Scientific Buletin of Namangan State University, 2020. –P 358-363; Кушиева Н.Х. Методологические основы преподавания английского языка в высших учебных заведениях на основе кластерного подхода // Международный журнал образования, социальных и гуманитарных наук FARS // Финляндия, 2023. -11с.; Xoliyorov B.H. The state of English language teaching and the conditions for the development of lexical competence in the higher educational institutions specialized to agriculture. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020. –P 19-24; Samatova B. Motivational issues in language teaching //Motif Akademi Halkbilimi Dergisi. – Turkey, 2014. – №. 2. – P. 359–363.

ingliz tilini chet til sifatida o'rganuvchi konchilik yo'nalishi 2-kurs talabarlari kasbiy leksik kompetensiyasini CEFR talablari asosida rivojlantirish va uni kommunikativ darajaga olib chiqish metodikasi va texnologiyalari kontekstli va elektron ta'lim integratsiyasi asosida takomillashtirilib, ingliz tilini kontentga asoslangan holda o'rgatish zarurati aniqlangan;

til va fan integratsiyasiga asoslangan holda, CLILning asosiy *mazmun, muloqot, bilish, madaniyat* kabi 4 "Cs" modellariga qo'shimcha integrativ model (kasbiy fanlar + ESP), rivojlantiruvchi model (CLIL texnologiyasi), autentiklik model (audio, video, pod castlar, chizmalar, rasm va diagramalar), mustaqil ta'limga asoslangan model (Loyihalash, Portfolio, and PPP) kabi CLIL modellari takomillashtirilib, biz tomondan tavsiya etilgan konchilik yo'nalishi talabalarida ingliz tilini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish modeli ilmiy jihatdan asoslangan;

ingliz tilini o'qitishda talaba o'quv-ijodiy faoliyatini rivojlantirishning didaktik ta'minotini ishlab chiqishning metodik asosini innovatsion o'qitishning kognitiv (axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish, kasbiy bilimga yo'nalganlik), kollaborativ (guruhiy munozaralar, hamkorlikda o'qitish, o'quv loyihalari), o'quv-ijodiy faoliyatga shaxsiy munosabatni qaror toptirishning tashkil qilishi ushbu komponentlar integratsiyasining o'qitish jarayonida ustuvorligi asosida dalillangan;

konchilik yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini baholashda kontent va til integratsiyasining samaradorligiga e'tibor qaratilib, takomillashtirilgan CLIL ta'lim texnologiyasiga asoslangan kognitiv-assotsiativ, kognitiv-kommunikativ va lingvistik yo'nalishlar bilan bog'liq mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

konchilik yo'nalishida ingliz tilini CLIL ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish natijasida 2-kurs talabarlari kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishning amaldagi mexanizmi kommunikativ metodika asosida takomillashtirilgan va "Konchilik yo'nalishi 2-kurs talabarlari kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi" nofilologik oliy ta'lim muassasalarida "Kasbiy sohada ingliz tilini o'qitish" fani mazmuniga singdirilgan;

konchilik yo'nalishi 2-kurs talabarlari kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish navbatdagi kommunikativ, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy kompetensiyalarni integratsiyalash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan "Amaliy xorijiy (ingliz) til" o'quv-uslubiy majmuasi takomillashtirilgan hamda "English for Mining Students" o'quv qo'llanmasi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** unda qo'llanilgan yondashuvlar, innovatsion metodlar va konchilik sohasiga oid terminlar hamda to'plangan ilmiy-nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi; konchilik yo'nalishida ingliz tilini o'qitishning o'quv-uslubiy ta'minoti (DTS, o'quv dasturi (Curriculum)), ishchi o'quv dasturi (Syllabus), o'quv adabiyotlari) va boshqa me'yoriy hujjatlarning tahliliy o'rganilishi; konchilik yo'nalishi 2-kurs talabarlari uchun ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmua hamda nashrdan chiqarilgan "English for Mining Students" o'quv qo'llanmasi, taklif etilayotgan metodik

tavsiyalarning tajriba-sinov yordamida amaliyotga joriy etilishi, tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik jihatdan tahlil qilinishi, dalillanishi hamda erishilgan natijalar samaradorligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz tilini o'rganish jarayonida konchilik yo'nalishi 2-kurs talabarlari kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik omillari aniqlashtirilganligi; ular kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishning kundalik turmush sharoitlarida, o'quv jarayonida rivojlantirilishi tamoyillari va metodikasining CLIL ta'lim texnologiyasi asosida takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot muammosiga doir adabiyotlarni nazariy tahlil qilish orqali olingan materiallardan konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalariga ingliz tilini o'qitish jarayonida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishda debatlar, viktorinalar orqali kasbiy leksik kompetensiya hamda uning kontentini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Konchilik yo'nalishi 2-kurs talabarlari kasbiy leksik kompetensiyasi kontentini rivojlantirish yuzasidan olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida:

oliy ta'lim muassasalarining nofilologik ta'lim yo'nalishi talabarlari kasbiy leksik kompetensiyasini CEFR talablari asosida rivojlantirish va uni kommunikativ darajaga olib chiqish metodikasi va texnologiyalari kontekstli va elektron ta'lim integratsiyasi asosida takomillashtirilib, ingliz tilini kontentga asoslangan holda o'rgatish zarurati bo'yicha xulosa va takliflardan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida amalga oshirilgan FZ-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusida bajarilgan fundamental loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 19-sentabrdagi 239-son ma'lumotnomasi). Natijada, konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishda CLIL ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligining oshishiga erishilgan;

til va fan integratsiyasiga asoslangan holda, CLILning asosiy *mazmun, muloqot, bilish, madaniyat* kabi 4 "C" modellariga qo'shimcha integrativ model (kasbiy fanlar + ESP), rivojlantiruvchi model (CLIL texnologiyasi), autentiklik model (audio, video, pod castlar, chizmalar, rasm va diagramalar), mustaqil ta'limga asoslangan model (Loyihalash, Portfolio, and PPP) kabi modellari biz tomondan takomillashtirilib, konchilik yo'nalishi talabalarida ingliz tilini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish modeli ilmiy jihatdan asoslangan hamda ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti A-AV-2019-13 raqamli "Markaziy Qizilqum past navli fosforitlari, faol loyqa mikroflorasi va mineral kislotalar asosida yangi turdagi granulalangan kompleks organomineral o'g'itlar" mavzusidagi loyahasida (Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universitetining 2022-yil 31-oktabrdagi 1-

01/1674-son ma'lumotnomasi) hamda A-AV-2019-13 raqamli "Sust o'tkazuvchi uran rudalarini yer ostida tanlab eritish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusida bajarilgan amaliy loyihasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universitetining 2022-yil 31-oktabrdagi 1-01/1674-son ma'lumotnomasi). Natijada, konchilik yo'nalishi 2-kurs talabalariga ingliz tilini o'qitish orqali talabalarning lingvokreativ salohiyati aniqlangan;

ingliz tilini o'qitishda talaba o'quv-ijodiy faoliyatini rivojlantirishning didaktik ta'minotini ishlab chiqish – metodik komponent sifatida innovatsion o'qitishning kognitiv (axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish, kasbiy bilimga yo'nalganlik), kollaborativ (guruhiy munozaralar, hamkorlikda o'qitish, o'quv loyihalari), o'quv-ijodiy faoliyatga shaxsiy munosabatni qaror toptirish komponentlari integratsiyasi ustuvorligi asosida dalillangan tavsiyalardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020-2021-yillarga mo'ljallangan 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHEIMEP:

"O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" innovatsion tadqiqotlar loyihasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 7-noyabrdagi 3060/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, konchilik yo'nalishi 2-kurs talabari kasbiy leksik kompetensiyasi kontentini rivojlantirishni ko'zda tutgan CLIL ta'lim texnologiyasining takomillashtirilgan modellari samaradorligi, til va fan integratsiyasining o'qitish jarayonida ustuvorligi aniqlangan;

konchilik yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini baholashda kontent va til integratsiyasining samaradorligiga e'tibor qaratilib, takomillashtirilgan CLIL ta'lim texnologiyasiga asoslangan kognitiv-assotsiativ, kognitiv-kommunikativ va lingvistik yo'nalishlar bilan bog'liq ishlab chiqilgan mashqlar tizimi materiallaridan va tavsiyalardan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Assalom, yangi kun", "Qadriyat", "Fan va taraqqiyot" kabi teleko'rsatuv va radioeshittirishlarida foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 10-noyabrdagi 01-02/168-son ma'lumotnomasi). Natijada, konchilik yo'nalishi 2-kurs talabari kasbiy leksik kompetensiyasi kontentini rivojlantirishning maqsadli hamda tizimli tashkil etilgan o'quv jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar majmuyi, bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lgan konchi-mutaxassis va kadrlarning ingliz tilini mukammal egallashi, shuningdek, kasbiy faoliyati jarayonida tilni kommunikativ maqsadlarda samarali qo'llay olishi uchun xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (3 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda) maqola e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar berilgan.<sup>0</sup>

Dissertatsiyaning **“Konchilik yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar natijasida uzluksiz ta'limda chet tillarni samarali o'qitish tizimi joriy etilishi sifatida va amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda bugungi kunda ingliz tilini samarali hamda tizimli o'qitish sifatini oshirish zarurati mavjudligi tahlil qilingan.

Tadqiqotda konchilik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifatini takomillashtirish quyidagi omillar bilan bevosita bog'liqligi aniqlangan:

- chet (ingliz) tilini B2 darajada biladigan malakali mutaxassislariga ehtiyojning oshib borishi;

- oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan birinchi kurs talabalarining chet (ingliz) tili bo'yicha savodxonligining malaka talablari va davlat ta'lim standarti talablariga to'liq javob bermasligi;

- talabalarining o'zga tilga xos kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni turli darajada o'zlashtirganligi;

- konchilik yo'nalish talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda talabalar o'quv-metodik va akademik individualligini ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv adabiyotlarining yetarli emasligi.

Mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet tili (ingliz tili)ni o'qitish jarayoni sifatini oshirishning samarali yo'llarini izlash bir paytning o'zida turli yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari chet tili (ingliz tili) darslarida muloqotning kasbiy va ijtimoiy sohalar bilan hamkorlikda talabalarni kasbiy nutqiy faoliyatga, ya'ni maxsus maqsadga yo'naltirilgan tarzda tayyorlash asosiy vazifa sifatida belgilangan. Soha mutaxassislari tomonidan turli yo'nalishlar bilan bog'liq dasturlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, yagona maqsad sifatida S.K.Lelyushkina tomonidan aniqlangan “nostandart yechimlar, murakkab terminologik atamalarni o'rganish, tilga oid noodatiy nutqiy vosita, usullarni egallash, fikrlashni shakllantirish”ga yo'naltirilgan turli sohaviy nutqiy malakalarni samarali o'zlashtirishni ta'minlash belgilab olingan<sup>12</sup>.

---

<sup>12</sup> Лелюшкина К.С. Шульгина Е.М. Специфика обучения иноязычному творческому высказыванию студентов технических специальностей //Вестник Томского государственного педагогического университета, № 3 (192). –Томск: ТГПУ, 2018. – С. 9–13.

Konchilik oliy ta'lim muassasalarida chet tili (ingliz tili)ni o'qitishning umumqabul qilingan yo'nalishlari sifatida kontekstli (CBI technology) va kasbga yo'naltirilgan ta'lim aks etadi. Talabalarning bo'lajak mutaxassislik bilan bog'liqlikda lingvistik tayyorgarligini rivojlantirishda kasbiy yo'naltirilgan ta'limning tayanch konsepti sifatida integratsiyalashgan ta'lim (CLIL technology) muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jihat bilan bog'liq A.A.Verbitskiyning kontekstli ta'lim konsepsiyasi keng tarqalgan. Muallifning fikricha, kontekstli ta'lim o'zida bo'lajak kasbiy faoliyatning fanga yo'naltirilgan va ijtimoiy mazmunini modellashtirishning didaktik shakl, metod va vositalari tizimi hamda mazkur faoliyat negiziga qurilgan belgilar tizimi sifatida asbtrakt bilimlarni aks ettiradi<sup>13</sup>. Aynan shaxsiy faollikning mazkur shakli orqali bo'lajak mutaxassislarda kasbiy va ijtimoiy zaruriy sifatlarni tarbiyalashni ta'minlash g'oyasi turadi.

An'anaviy ta'limda bo'lgani kabi kontekstli o'qitishda ham o'quv materialini o'zlashtirish axborotlardan iborat belgili tizimlar sifatida matn ko'rinishida taqdim etiladi. Biroq o'quv axborotlarini o'zlashtirishga doir topshiriqlar, muammoli vaziyatlar bo'lajak kasbiy faoliyat bilan aloqadorlikda tizimlashtiriladi. Bu esa o'rganish jarayonining shaxsiy anglanishini ta'minlaydi, o'quv-bilish jarayonidan mehnat faoliyatiga maqsadli yo'naltirish imkoniyatini yaratadi.

Chet tili (ingliz tili)ni o'qitishda kontekstli va kasbiy yo'naltirilgan ta'lim o'z konsepsiyasiga ko'ra bir-biriga yaqin, ya'ni ikkalasi ham bo'lajak kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarda o'zga tilga xos kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasini asosiy maqsad sifatida qaraydi. P.I.Obratsov va O.Y.Ivanovalarning aniqlashtirishicha, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim motivatsion va izlanishli-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda kasbiy tafakkurning o'ziga xoslik xususiyatlarini hisobga olgan holda nofilolog talabalarda o'zga tilga xos muloqot malakalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi<sup>14</sup>. Demak, kasbiy yo'naltirilgan o'zga til muloqotiga o'rgatishda kasbiy nutqiy faoliyat bilan bog'liq holda o'zga tilga xos kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning barcha komponentlari to'liq qamrab olinadi.

CLIL (Content and language Integrated Learning) ta'lim texnologiyasi kasbiy professional leksikani qo'llagan holda hamkasblar bilan muloqot qilish malakalarini rivojlantirish, talabalar va doktorantlarga Yevropa oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish imkoniyatini bermoqda. Shuningdek, chet tilini bilish kasbiy faoliyatni yuqori darajada olib borish, innovatsion ishlanmalar loyihasini xalqaro hamkorlarga taqdim etish va ushbu sohada kasbiy yutuqlarga erishish kabi imkoniyatlarni beradi.

M.A.Akopova, Y.V.Yeremin, R.A.Kuznetsova, N.V.Popova, A.Pumpyanskiy, V.I.Strelsovlar chet tillarini muloqot darajasida egallash texnika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi mutaxassislari o'rtasida kundan kunga oshib borayotganligi kelgusida professional faoliyat olib borishlariga imkoniyat

---

<sup>13</sup>Вербицкий А.А. Контекстное обучение в компетентностном формате // Высшее образование в России. – Братск: Братский государственный университет, 2011. № 11. – С. 63-67.

<sup>14</sup>Образцов П.И., Иванова О.Ю. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку на неязыковых факультетах вузов: Учеб. пособие / Под ред. П.И. Образцова. – Орел: ОГУ, 2005. – 114 с.

yaratishini ta'kidlab o'tganlar<sup>15</sup>. Chet tili ta'limida o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalarni izlab topish va ularni til o'rganish jarayoniga tatbiq qilish talabalarning tilni intensiv o'rganish hamda ularning qiziqishlarini rag'batlantirish imkonini oshirishga ko'mak beradi. Bu qiziqish esa til o'rganuvchilarning ta'lim sohasida yangi ta'lim texnologiyalari, innovatsion ta'lim metodlari, shakllarini texnika oliy ta'lim tizimiga tatbiq etishni taqozo etadi.

Talabalarning kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish va undan professional darajada foydalanishga alohida ahamiyat beriladi. Texnika sohasi bo'yicha har tomonlama bilimli, yuksak ma'naviyatli va madaniyatli, zamonaviy yosh mutaxassis uchun til to'siqlari bo'lmasligi kerak. U o'z vatanida ham, xorijiy davlatlarda ham til bilish nuqtayi-nazaridan o'zini erkin his qilishi zarur. Hozirgi kunda texnika universitetlarida nafaqat sohaviy bilimlarni berish, balki soha kontentini chet tillarda sifatli o'qitish, bilimli, malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilmoqda. Talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasi tarkibiga lingvistik kompetensiyaning barcha ko'nikmalari kiritilgan bo'lib, ularni to'liq integratsiya asosida egallash bilan birga undan professional darajada foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, konchilik yo'nalishi talabalariga ham o'z profili bo'yicha har tomonlama bilimli, multimadaniyatli, poliglot mutaxassis uchun til to'siqlari kuzatilmasligi darkor. Talaba o'z vatanida ham, tashrif buyurishi mumkin bo'lgan o'zga til muhitida ham o'zini erkin his qilishi kerak bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldiga, nafaqat sifatli ta'lim berish, balki sohaviy bilimlarni chet tilida egallash, ulardan amaliy maqsadlarda foydalana olish dolzarbdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Konchilik yo'nalishi talabalari kasbiy leksik kompetensiyasini kontentga asoslangan rivojlantirish metodikasi”** deb nomlanib, konchilik yo'nalishi talabalari leksik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo'llari va texnologiyalari haqida fikrlar keltirilgan. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan “Amaliy xorijiy til” o'quv dasturida ko'zda tutilgan mavzularni mazmunga uyg'unlashtirgan holda o'qitish ingliz tili o'qituvchilari oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib bormoqda.

Konchilik yo'nalish talabalari auditoriyasida ishlaydigan ingliz tili o'qituvchilari ta'lim yo'nalishi xususiyatidan kelib chiqqan holda ishchi dastur tuzishlari hamda o'quv-uslubiy majmualar mazmunini shakllantirishi mushkul

---

<sup>15</sup> Акопова М.А., Попова Н.В. Инновационные аспекты содержания обучения иностранным языкам в современном вузе (проект IELTS) // – Санкт-Петербург: СПбПУ, 2013. – С 310-315. [https://engtech.spbstu.ru/userfiles/files/articles/2013/2/46\\_akopova.pdf](https://engtech.spbstu.ru/userfiles/files/articles/2013/2/46_akopova.pdf); Кузнецова Р.А. Изучение иностранных языков в неязыковом вузе. – Казань: Изд-во Казанского ун-та, 1979. – 112 с.; Еремин Ю.В., Рубцова А.В. Продуктивная лингводидактика как инновационная составляющая в профессиональной непрерывной педагогической подготовке // Непрерывное педагогическое образование в современном мире: от исследовательского поиска к продуктивным решениям: сборник материалов Международной научной конференции: к 20-летию НИИ НПО РГПУ им. А.И.Герцена. СПб: РГПУ им. А.И.Герцена, 2013. – С. 284–291; Попова Н.В. Коган М.С. Одинокая М.А. Предметно-языковое интегрированное обучение (CLIL) как методология актуализации междисциплинарных связей в техническом вузе. Санкт Петербург: СППУ, 2018. –С 29-42; Пумпянский А.Л. Чтение и перевод английской научной и технической литературы. – Новосибирск: Попурри, 1990. – 87 с.; Стрельцов Ю.А. Педагогика досуга: учебное пособие/ - 2-е изд, испр. и доп. – Москва: Мгуки, 2010. – 307 с.


masala hisoblanadi. Chet tili o‘qituvchilari oldida talabalar ehtiyojlari, muammolarini o‘rganishi va har bir soha mazmunini “Amaliy ingliz tili” fani dasturi mazmuniga singdirish mas’uliyati turishi lozim.

Tadqiqotda nofilologik ta’lim yo‘nalishlari, xususan, konchilik yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini zamonaviy ta’lim texnologiyalarini mohirona qo‘llagan holda o‘qitish maqsadida ushbu yo‘nalish ishchi o‘quv dasturi, o‘quv-uslubiy majmuasi, o‘quv materiallari hamda tilni amaliy jihatdan egallash imkonini beradigan mashqlar tizimi, o‘quv qo‘llanmasi ishlab chiqilgan.

### **Taklif etilayotgan o‘quv dasturi mazmuni**

<b>Taklif etilayotgan o‘quv dasturi mazmuni</b>	- kasbiy muloqotning asosiy elementlariga (umumiy, ilmiy, umumkasbiy lug‘at) va konchilik terminlariga muvofiq tanlangan leksik birliklar;
	- ingliz tilining kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan o‘qitish jarayoni;
	- semantizatsiya (tanishuv), nazariy bilimlarni o‘zlashtirish (leksik ko‘nikma hosil qilish), kasbiy yo‘naltirilgan kommunikativ vazifalarni hal qilish (amaliyotda qo‘llash), ingliz tilini o‘qitishni auditoriyada tashkil etish shakllari, an’anaviy (amaliy individual, juft va kichik guruhlarda ishlash, ingliz tili haftaligi (konchilik sohasining eng yaxshi gid-tarjimoni, eng yaxshi insho, eng yaxshi suhbatdosh tanlovi, intervyusi g‘olibi), davra suhbat (debat, dialog tuzish, mustaqil ish);
	- ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini yaratish;

Konchilik yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda mutaxassislik fani mazmunini singdirgan holda zamonaviy texnologiyalar, CLIL ta’lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini tavsiya sifatida berdik. Mazkur o‘qitish texnologiyasi turli soha fanlarini ingliz tilida o‘qitishda samarali foydalaniladi. Texnologiyaning maqsadi ikkita asosiy tushuncha – “til” va “fan integratsiyasi”ga asoslanadi. CLIL shartli ravishda “hard” (qat’iy) CLIL va “soft” (o‘zgaruvchan) CLILga bo‘linadi. Hard CLIL har qanday fanni ingliz tilida o‘qitilishi mumkinligini anglatadi (agar u talabalar uchun L2 bo‘lsa). Tadqiqot orqali CLIL ta’lim texnologiyasi dars davomida talabalar konchilik yo‘nalishi o‘quv rejasida berilgan geologiya, mineralogiya, konchilik ishi kabi fanlarni ingliz tili orqali o‘rganadilar. “Soft” CLILdan foydalanishda uning vazifasi aksincha: boshqa fanlar bo‘yicha mavzular til materiallaridan foydalangan holda ingliz tilida o‘rganiladi. Yuqorida jahon va rus olimlari nazariyalariga asoslangan holda tilni o‘rganishda CLIL texnologiyasi asosiy 4 “C” modelni o‘z ichiga oladi: mazmun, muloqot, bilish va madaniyatga asoslanishni nazarda tutadi.




**1-rasm. Tilni o‘rganishda qo‘llaniladigan CLIL modellari**

Bu to‘rtala atama bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning birinchi uchtasi fan bo‘yicha bilimlarni ingliz tilida egallashga bevosita yordam bersa, oxirgisi esa o‘zga til egalari bilan muloqot qilishda ularning madaniyat elementlari haqida ma‘lumot beradi. CLIL ta‘lim texnologiyasining yana bir nechta afzalliklarini sanab o‘tish mumkin:


- talabalarining mutaxassislik fani kontentini ingliz tilida egallashga imkon beradi;
- talabalarining madaniyatlararo bilimlarini kengaytiradi;
- talabalarining tabiiy sharoitlarda ingliz tilida muloqot qilish kompetensiyasini rivojlantiradi;
- talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi va tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi;
- talabalar motivatsiyasi va o‘ziga ishonchini oshiradi;
- barcha til kompetensiyalarini integratsiyalagan holda rivojlantiradi;
- til kompetensiyasi va og‘zaki nutq kompetensiyalarini takomillashtiradi;
- hayotning turli sohalarida ingliz tilidan amaliy foydalanish darajasini rivojlantiradi.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish asnosida CLILning afzalliklari o‘rganildi, uning jahon va rus olimlari tomonidan tadqiq qilingan modellari mazmun-mohiyati hamda o‘quv jarayonida qo‘llanilishi aniqlashtirildi, uning komponentlari integratsiyalangan holda takomillashtirildi:



**2-rasm. CLILning o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan modellari**

Ushbu CLIL modellari talabalarda kontent va til integratsiyasini rivojlanishini ragʻbatlantirish uchun foydali hisoblanadi. CLILning modellari til oʻrganishda fanlarni oʻqitish orqali integratsiyalashga, konchilik yoʻnalishi talabalari bilim olishini mazmunli va qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. CLIL asosida fan va tilni integrativ holda oʻqitish boʻyicha tahlillar shuni koʻrsatdiki, oʻqituvchi undan sohaga oid istalgan autentik materialdan mohirona foydalanishi mumkin. Autentlikni esa audio, video, postcardlar, chizmalar, rasmlar va diagrammalar taʼminlaydi. CLILning yana bir muhim jihati konchilik yoʻnalishi talabalari mustaqil taʼlim olish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Konchilik yoʻnalishi 2-kurs talabalari mustaqil taʼlimi Loyihalash (Project Work), Portfolio va PPP (Presentation, Practice, Production) metodlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Tadqiqotda CLILning takomillashtirilgan quyidagi modellarini tavsiya etamiz:



### 3-rasm. Takomillashtirilgan CLIL modellari

**1. Integrativ model (kasbiy fanlar + ESP).** Bu model tilni oʻqitishda integrativ yondashuv boʻlib, til boʻyicha bilim va malakalarni kasbiy fanlar yoki fan sohalari kontenti bilan uygʻunlashtirishga qaratilgan. Kasbiy fanlar va ESP til kompetensiyasini rivojlantirishda talabalarining kasbiy yoki oʻquv ehtiyojlariga mos keladigan muayyan mavzular bilan integratsiyalashni oʻz ichiga oladi. Talabalar maxsus kasbiy fanlar kontenti: asosiy tushunchalar, lugʻat va til malakalarini kasbiy yoki akademik maqsadlarga moslashtirilgan holda oʻrganadilar. Kasbiy maxsus fanlar, xususan konchilik ishiga kirish, geodeziya, geofizika...lar va ESP integrativ modeli bir vaqtning oʻzida til malakalarini va fanga oid bilimlarni egallashga qaratilgan.

**2. Rivojlantiruvchi model (CLIL bilan rivojlanish modeli).** CLIL bilan rivojlanuvchi model til oʻrganishda mavzuga oid bilimlarni oʻzlashtirish bilan uygʻun holda kasbiy leksik kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish va mashqlar tizimini yaratishda samaralidir. Shuningdek, oʻqish, yozish, tinglab tushunish va gapirish kompetensiyalarini konchilik sohasi bilan uygʻun holda rivojlantirishni nazarda tutadi. CLIL taʼlim texnologiyasining bu modeli elektron taʼlim resurslari, taqdimot-maʼruzalar, amaliy tayyorgarlik vositalari (mashqlar toʻplami: informatsion; transformatsion; kreativ), matnli axborotli online-resurslar (oʻquv qoʻllanma)lardan yangi sohaviy oʻquv materiallarni tushuntirishda,

mavzuni mustahkamlashda, talabalarning o‘zlashtirishini nazorat qilishda, o‘quv materiallarni tizimlashtirishda samarali foydalanish orqali talabalar til kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

### **3. Autentiklik modeli (audio, video, pod castlar, chizmalar, rasm va diagrammalar)**

Autentiklik modeli – kasbiy fanlar va ESP kontekstida CLIL ta’lim texnologiyasining yana bir modeli sifatida til va kontentni audio, video, pod kastlar, chizmalar, rasm va diagrammalar yordamida o‘rganishda qo‘llaniladi. Konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalar kasbiy leksik kompetensiyasini o‘z sohasiga oid ma’ruzalar, debatlar yoki intervyular, autentik yozuvlarni tinglash, tog‘-kon operatsiyalari yoki xavfsizlik tartib-qoidalarini o‘rgatadigan videoroliklarni tomosha qilish orqali rivojlantirish mumkin. Shuningdek, CLILning mazkur modeli fotosuratlar va diagrammalardan foydalanish yordamida konchilik bilan bog‘liq turli vizual materiallarni o‘rganish, rasmlar esa kasbiy lug‘atni rivojlantirish yoki fikrni ifodalash faoliyati uchun vizual ko‘rsatmalar bo‘lib xizmat qiladi.



#### **4-rasm. Autentiklik modelining ko‘rinishlari**

Masalan, silver (kumush), gold (oltin), uranium (uran), coal (ko‘mir) va hokazo elementlarni vizual holda tasvirlash imkonini beradi.

**4. Mustaqil ta’limga asoslangan model (Loyihalash, Portfolio, and PPP).** CLILning bu modeli soha kontekstida talabaning darsdan tashqari ishlarini tashkil etishga imkon beradi. Mustaqil ta’limni rivojlantirish uchun loyiha ishlarini CLIL ta’lim texnologiyasi yordamida amalga oshirish mumkin. Talabalar o‘z sohasiga oid aniq mavzularda, masalan, “Konchilik amaliyoti” yoki “Konning atrof-muhitga ta’siri” kabi mavzularda tadqiqot ishi tayyorlashi va uni taqdimot qilishni talab qiladigan loyihalar bilan shug‘ullanishlari mumkin. Bu ularga soha bilimlarini egallashga, tadqiqot va taqdimot kompetensiyalarini rivojlantirishga ko‘mak beradi.

CLIL ta’limi texnologiyasida **Portfolio** konchilik talabalariga mustaqil topshiriqlar to‘plamini, jumladan, yozma topshiriqlar, taqdimotlar va mustaqil o‘rganish bo‘yicha hisobotlar tayyorlashda qo‘l keladi. Portfolio talabalarga mustaqil rivojlanish dinamikasini kuzatish, pirovard maqsadlar qo‘yish, til va kontentni o‘rganishda ingliz tilida fikr yuritish kompetensiyalarini shakllantiradi.

**PPP (Presentation, Practice, Production):** CLILning bu modeli konchilik talabalar auditoriyasida o‘rganilgan mavzuning davomi sifatida mustaqil ta’limni

tashkil etishda PPP yondashuvidan foydalanish konchilik yoʻnalishi 2-kurs talabalariga togʻ-kon mavzulari boʻyicha oʻz bilim va mahoratlarini taqdim etish, turli kontekstlarda ingliz tilidan foydalanishni mashq qilish, ularning til va kontentni integratsiyalash kompetensiyasini namoyish etish imkonini beradi. PPPning yana bir muhim tomoni shundaki, talabalarni bilim olish masʼuliyatini oʻz zimmlariga olishlari, maqsadlar qoʻyishlari, resurslarni izlashlari, til va kontentni rivojlantirishga yordam beradigan faoliyatda faol ishtirok etishga yoʻnaltiradi. Umuman olganda, CLILning biz ilgari surgan modellari konchilik yoʻnalishi 2-kurs talabalariga uchun fan va tilni integrativ holda samarali oʻqitish, mustaqil taʼlimni targʻib qilishga yoʻnaltirilgan yondashuv sifatida talabalarga integratsiyalangan kontent va til oʻrganish faoliyati orqali til kompetensiyalari va mavzuga oid bilimlarni rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilida konchilik yoʻnalishi talabalariga kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishning tajriba-sinov tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarining mazmuni va statistik tahlili ifodalangan.

Tajriba-sinov ishi uni tashkillashtirishga qoʻyilgan ilmiy-metodik talablarga koʻra olib borildi. Unga koʻra, tadqiqotning tajriba-sinov ishida eksperimental tanlanma miqdori tajriba boshida 374 nafar va tajriba soʻnggida 374 nafar ishtirokchidan iborat boʻldi. Ilmiy tadqiqot davomida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari Nukus filiali hamda Termiz muhandislik-texnologiya instituti konchilik yoʻnalishlari talabalarining ingliz tilida leksik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasi tajriba-sinovdan oʻtkazildi:

**1-jadval**

Tajriba-sinov maydonlari	Dastlabki bosqich		Yakuniy bosqich	
	Tajriba Guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba Guruhi	Nazorat guruhi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti	96	90	96	90
Termiz muxandislik texnologiya instituti	50	53	50	53
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti	40	45	40	45
Jami	186	188	186	188

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish toʻrt bosqichdan iborat boʻlib, ular tashxis va bashorat qilish (prognostik), tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi bosqichlardir:

2-jadval

№	Tajriba-sinov ishining bosqichlari	Tashkil etilgan jarayonlar
1.	Tashxis va bashorat qilish (prognostik) bosqichi	-pedagogik diagnostika obyektlari belgilandi -muammo aniqlandi va mavzular shakllantirildi -tajriba-sinov maqsadi, ilmiy farazi va vazifalari belgilandi -tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi
2.	Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi	-tajriba-sinov maydoni va ishtirokchilari tarkibi aniqlandi -pedagogik jarayon tavsifi belgilandi -tajriba-sinov ishlari metodik ta'minoti ishlab chiqildi -tajriba-sinov ishlari tashkiliy ta'minoti ishlab chiqildi
3.	Amaliy bosqich	-ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi tajriba-sinov ishlari olib boriladi -tajriba-sinov ishlari guruhlarda bosqichma-bosqich amalga oshirildi
4.	Umumlashtiruvchi bosqich	-tajriba-sinov ishlari natijasi algoritmi ishlab chiqildi -tatbiq etish bosqichi amalga oshirildi

Tajriba-sinov ishlari uchun eng muhim vazifalardan biri baholash me'zonini ishlab chiqish bo'lib, biz talabalar bilimni baholashda quyidagi baholash me'zonidan kelib chiqib baholadik:

3-jadval


5 "a'lo" baho	<b>Talaba</b> mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimlarini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, fanning (mavzuning) mohiyatini biladi, fanning (mavzuning) mohiyatini ifodalay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi.
4 "yaxshi" baho	<b>Talaba</b> mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimlarini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, fanning (mavzuning) mohiyatini biladi, fanning (mavzuning) mohiyatini ifodalay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi.
3 "qoniqarli" baho	<b>Talaba</b> olgan bilimlarini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, fanning (mavzuning) mohiyatini biladi, fanning (mavzuning) mohiyatini ifodalay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi.
2 "qoniqarsiz" baho	<b>Talaba</b> fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'lmaydi.

Tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy faraz, ilmiy-amaliy xulosalarni isbotlash maqsadida, tajriba-sinov o'tkaziladigan bazalar tanlab olindi. Ilmiy izlanishlar davomida nazariy muammolarni hal qilish bilan bir qatorda, tajriba-sinov o'tkazish


orqali konchilik yoʻnalishi talabalari leksik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan leksik mashqlarning interaktiv texnologiyalar yordamida samaradorligini aniqlash asosiy maqsad qilib olindi. Chet tilini oʻrgatishda tajriba-sinov metodining oʻziga xos xususiyatlari orqali taʼlimning sifat koʻrsatkichlarini oshirishga erishish mumkinligi koʻrsatildi. Tadqiqot materiali sifatida nazariy va amaliy manbalar, mavjud chet tili darsliklari, qoʻllanmalar hamda konchilik yoʻnalishlari uchun mavjud oʻquv adabiyotlar materiallari ham olindi. Ushbu ishda tadqiqot obyekti, predmeti, materialini tahlil qilish uchun matematik statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Konchilik yoʻnalishi talabalari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda leksik material ulushini aniqlash uchun tanlab olingan leksik birliklar yuqorida aytib oʻtilganidek, tashxis toʻxtamlari, kuzatuvlar natijalariga koʻra talabalar tomonidan oʻzlashtirilishi qiyin boʻlgan til materiallariga ham alohida eʼtibor qaratildi. Shu nuqtayi nazardan tadqiqot predmeti sifatida amaliy ingliz tili kasbga oid leksik zahirasidan eng faol leksik birliklar tanlab olindi. Taqsimlash, berilgan mavzu boʻyicha nutq talablarining qondirilishi, qiyinchiliklarni bir-biridan ajratilgan holda berilishi, yangi materialni bir meʼyorda kiritilishi, yangi konchilik sohasiga oid leksik materialni mustaqil ravishda maʼnosini ochish uchun turli nutqiy kontekstlardan va tajribalardan foydalanish, leksikani oʻtilayotgan mavzuga mos kelishi kabi jihatlariga alohida eʼtibor qaratildi. Leksik materialni kasbiy muloqot chogʻida qoʻllashga oʻrgatadigan mashqlar 2 ga boʻlinadi: til yoki tayyorlov mashqlari va nutq mashqlari.

Tajriba-sinov davomida respondentlardan ishning ikkinchi bobida tavsiya etilgan mashq turlari boʻyicha tajriba oldi va tajriba soʻngida testlar olindi. Jumladan, talabalardan "Informatsion exercises" mashq turi boʻyicha tajribadan oldin va tajribadan keyin nazorat testlari olindi va tanlanma maydonlarning natijalari quyidagicha boʻldi:




**5-rasm. "Informatsion" exercises (tajriba oldi natijalar)**




**6-rasm. "Informatsion" exercises (yakuniy natijalar)**

Ushbu mashq turi bo'yicha dastlabki va yakuniy natijalar o'rtasida sezilarli natijalar ko'zga tashlanganligini yuqoridagi rasmlarda ko'rish mumkin.

Tajriba-sinovning yana bir muhim mashq turlaridan biri bu "Bloom taxonomy related tasks" mashqlari bo'lib, bunda asosan talabalar o'qish ko'nikmasiga tayangan holda mashqlarni bajarishdi va ular ko'rsatgan dastlabki va yakuniy natijalar quyidagicha ko'rinishni oldi:



**7-rasm. "Bloom taxonomy related tasks" mashqlari (dastlabki natijalar)**



**8 -rasm. “Bloom taxonomy related tasks” mashqlari (yakuniy natijalar)**

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv adabiyotlarda dars jarayonida bajarilishi mo‘ljallangan leksik-grammatik mashqlarning maqsadi aniqlashtirilib, oldin o‘zlashtirilgan leksika asosida yangi grammatik material talabalarga tanishtirib borildi. Yangi leksik, grammatik material shartli nutq mashqlari orqali mustahkamlanib, grammatik material o‘zlashtirilishiga, leksik-semantik mashqlar bajarilishiga, leksik material va nutq mashqlarini tizimli ravishda o‘zlashtirilib borilishiga alohida e‘tibor qaratildi.

Nutq mashqlarini bajarayotganda, ya‘ni semantizatsiya vaqtida mashqlarda leksik birliklar takrorlanishi kuzatilmaydi, ular orasida aloqa yo‘q. Semantik aloqadorlikni ta‘minlash uchun bunday so‘zlarni perifraza usuli bilan ularni mustahkamlashga yo‘naltirilgan mashqlar orqali boyitish maqsadga muvofiq. Nutq mashqlari sifatida mavzu mazmunini muhokama qilish (o‘qituvchi savoliga javob berish, matnning qisqacha mazmunini gapirib berish, skimming, scanning hamda jig-saw reading turlaridan unumli foydalanish; mavzuni mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni oldindan tayyorlangan va tayyorlanmagan holda gapirib berish; mavzuiy hisobotlar, xabarlar va muhokama va debatlar tayyorlash kabi vazifalar berish maqsadga muvofiq.

Biz tavsiya etayotgan mashqlar so‘zlarning denotativ ma‘nolari bilan yondosh ma‘nolari, ya‘ni konnotativ ma‘nolarini nutq mashqlari orqali topish, situativ nutq muloqotida erkin qo‘llay olish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.


Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari davomida konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalarining kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlanganlik darajasi aniqlandi.

NG va TG talabalari leksik kompetensiyasining tajriba-sinov ishlaridan oldingi va keyingi sifat ko‘rsatkichlari orasidagi farq quyidagi holatda kuzatildi:

4-jadval

O'zlashtirish darajasi	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
	Tajriba boshida, 186 nafar	Tajriba oxirida, 186 nafar	Tajriba boshida, 188 nafar	Tajriba oxirida, 188 nafar
5 baho	32	48	34	35
4 baho	60	89	61	62
3 baho	74	37	72	71
2 baho	20	12	22	21
Jami:	186	186	188	188

Tajriba va nazorat guruhlarida talabalar olgan baholarining umumiy ko'rsatkichlarini Student-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil qildik. Tajriba va nazorat guruhidagi talabalarning tajriba yakunida olgan baholarining natijalarini tanlanmalar asosida farqlab, talabalarning o'zlashtirish dinamikasini quyidagi tarzda kuzatildi:



5-rasm. Talabalarning o'zlashtirish dinamikasi

Ushbu o'zlashtirish ko'rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$P = \frac{\bar{X}}{4} \cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{4} \cdot 100\% = \frac{3,9301}{4} \cdot 100\% - \frac{3,6063}{4} \cdot 100\% = 8,1\%$$

Ko'rinadiki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 8,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, tadqiqot doirasida ilgari surilgan faraz o‘z samarasini berdi. Ingliz tilida konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy CLIL ta‘lim texnologiyasi asosida olib borilgan darslarning samarali ekanligidan dalolat beradi.

## XULOSA

1. Talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasi sohaga doir so‘z va iboralar, texnik terminlar, turg‘un birikmalar, idiomalar hamda jargonlarni nutqiy muloqot chog‘ida qo‘llash orqali rivojlantirildi.

2. Talabalar ingliz tilida “can do” deskriptori yordamida ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilayotgan o‘lchov me‘yori, o‘quv dasturi kontenti va uning baholanish tizimiga oid natijalarni tavsiflanib, ingliz tili bo‘yicha CEFR darajasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga mo‘ljallangan o‘quv dasturi ishlab chiqildi, dastur kontenti soha ixtisosligi bo‘yicha bilim berishga va barcha lingvistik va kommunikativ kompetensiya komponentlarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

3. Konchilik sohasiga oid so‘z va iboralar, texnik terminologiyani o‘rgatish maqsadida berilgan mashqlar tizimida informatsiya taqdimoti, leksik birliklarni tushunish va bilish uchun mashq qilish, til va shartli nutq mashqlari asosida faollashtirish, kommunikativ (nutq) mashqlar singari bir necha bosqichlarda namoyon bo‘lishi kuzatildi.

4. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari tajriba-sinov uchun tayyorlangan mashqlar tizimi asosida talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasini egallash imkoniyati mavjudligini isbotladi. Konchilik sohasiga oid atamalar, boshqa ma‘nodosh so‘zlar qatorini nutqiy muloqot chog‘ida qo‘llash talabalarda “til sezgisi”ni rivojlanishiga ijobiy ta‘sir qildi. Tajriba-sinov guruhlar natijalari leksik minimum ishlatishning eng ma‘qul variantini tanlay olish, ingliz tilida muloqot qila olish qobiliyatiga ega bo‘lish darajasi tajriba-sinov guruhlarida ancha yuqoriligini ko‘rsatdi.

5. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan mashqlar tizimidan konchilik yo‘nalishi 2-kurs va turdosh ta‘lim yo‘nalish talabalari ingliz tili ta‘limi amaliyotida foydalanish mumkin. Tajriba-sinov davomida olingan to‘xtam natijalari talabalar kasbiy leksik nutqini variativ leksik birliklarni qo‘llash hisobiga leksik jihatdan mazmundor bo‘lishiga erishildi. Ishlab chiqilgan mashqlar tizimi, nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligi dalillandi.

6. Konchilik sohasiga oid texnik atamalar va terminlar, variativ leksik birliklar misolida konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari kasbiy leksik kompetensiyasini takomillashtirishda maqsadli yondashish, muloqot vaziyatiga mos ravishda sezilarli darajada ingliz tilida kasbiy muloqot qilish variativ imkoniyatlarining kengayishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Konchilik yo‘nalishi talabalarining ixtisoslik fanlari bo‘yicha, balki til tayyorgarligi eng muhim omil sifatida ko‘rildi, natijada talabalar kasbiy nutqi ravonligi, zarur leksik birliklarni

o‘rinli va maqbul variantlarini tanlash hamda nutqiy vaziyatda leksik takrorlashlar bo‘lmasligiga erishildi.

7. Tajriba-sinovda sohaga oid terminlar bilan bir qatorda boshqa paremiologik birliklar bilan ham ishlash talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi. Tajriba-sinov guruhlari mustaqil ravishda, o‘qituvchi ko‘rgazmalarisiz leksik minimum bilan chegaralanib qolmaslik maqsadida boshqa variativ leksik birliklarni ishlata olish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Tajriba-sinovning ilk bosqichida kasbiy leksik birliklar semantizatsiyasini eng samarali vositasi sifatida, tarjima usullaridan foydalanish, u yoki bu leksik birlik ma‘nolarining nozik tomonlarini o‘zlashtirishni ta‘minladi, keyingi bosqichlarda esa takomillashtirilgan kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lgan holda boshqa leksik birliklarni qo‘llashda ham ijobiy ta‘siri kuzatildi.

8. Kommunikativ metodikada kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan CLILning tavsiya etilgan to‘ldiruvchi, rag‘batlantiruvchi, boyitish, mavzulastirilgan, yopiq ta‘lim kabi modellari biz tomonimizdan tavsiya etilgan integrativ (kasbiy fanlar + ESP), rivojlantiruvchi (CLIL bilan rivojlanish modeli, autentiklik (audio, video, podcasts, chizmalar, rasm va diagramalar), mustaqil ta‘limga asoslangan (Loyihalash, Portfolio, and PPP) kabi modellar bilan takomillashtirildi. Bu modellar kontent va til integratsiyasini ta‘minlashda bir-birini to‘ldirdi, kasbiy leksik kompetensiyani rivojlanishiga asos bo‘ldi.

9. Tajriba-sinov yordamida nazorat va tajriba-sinov guruhlari talabalar kasbiy leksik kompetensiyasi CLIL ta‘lim texnologiyasi yordamida takomillashtirildi. CLIL ta‘lim texnologiyasi yordamida rivojlantirishda konchilik terminlari bilan birga variativ-konnotativ leksik birliklarning tutgan o‘rni aniqlandi, zamonaviy o‘qitish usullari asosida mashg‘ulotlar olib borish natijasida talabalar leksik zahirasini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan o‘z isbotini topdi.

## **TAVSIYALAR**

Dissertatsiyada tadqiqot yuzasidan olib borilgan ilmiy-nazariy, metodik va tahliliy ishlar, o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalaridan olingan umumiy xulosalarga asoslangan holda quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Konchilik yo‘nalishi talabalarida ingliz tilini o‘qitishda kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi kontentini, kontent va ingliz tili integratsiyasini ta‘minlashga xizmat qiluvchi 2-kurs o‘quv-metodik bazasini takomillashtirish;

2. Tadqiqotning yetakchi konsepsiyasi konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalarining ingliz tilida “kasbiy leksik kompetensiya”sini rivojlantirishga xizmat qiluvchi me‘yorlar, CLIL ta‘lim texnologiyasining takomillashtirilgan modellari yordamida mashqlar tizimini yanada takomillashtirish, ommalashtirish va amaliyotga joriy etish;

3. Konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalar kasbiy leksik kompetensiyasini takomillashtirilgan modelini maxsus fanlar kontenti bilan integratsiya qilgan holda turli maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tilini boshqa tarmoq va sohalar misolida

o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish;

4. Konchilik yo'nalishi talabalarining kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishning takomillashtirilgan modellarini amalga oshirish samaradorligini maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili darslari orqali o'quv hamda ilmiy faoliyatda joriy etish uchun ijobiy motivatsion muhit yaratish, kommunikativ vazifalarning muhim yo'nalishlarini kengaytirish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
PhD.03/30.12.2019.Fil. 83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**САЙДУЛЛАЕВА ХУСНОРА УТКИРОВНА**

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ  
СТУДЕНТОВ ГОРНОГО НАПРАВЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ  
АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

**13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания  
(английский язык)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Самарканд - 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована Высшей Аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/Ped2271.**

Диссертация выполнена в Навоийском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного Совета по адресу [www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz) и информационно-образовательном портале “ZiyoNet” ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Хошимова Дилдора Уринбоевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

\_\_\_\_\_  
доктор педагогических наук, профессор

\_\_\_\_\_  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:**

\_\_\_\_\_

Защита диссертации состоится “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного Совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01. по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140104, Узбекистан, город Самарканд, улица Бустонсарой, д. 93. Тел: (99866) 233-78-43); e-mail: [info.@samdhti.uz](mailto:info.@samdhti.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 140104, Узбекистан, город Самарканд, улица Бустонсарой, д. 93. Тел: (99866) 233-78-43).

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Протокол реестра рассылки за № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года).

**А.А.Яхшиев**

Председатель Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**Г.К.Мирсанов**

Ученый секретарь Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

**Ш.С.Сафаров**

Председатель Разового научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В современную эпоху всемирного научного развития английский язык приобретает все большую актуальность как средство стремительного совершенствования интеграционного процесса в науке и производстве, проявления принципов формирования личности в каждой сфере образования, научных исследований, связанных с жизненными потребностями и профессией, сохранения национальных и духовных ценностей и передачи их следующему поколению, создания позитивной среды, установления коммуникации для экономического и дипломатического сотрудничества. В связи с этим ЮНЕСКО, Советом Европы, Европейской комиссией по образованию и культуре были созданы различные организации, комитеты, ассоциации и научно-исследовательские институты, и с помощью документа CEFR проводятся научные исследования, направленные на повышение уровня и качества владения английским языком на каждом этапе обучения.

В научно-исследовательских учреждениях, известных в мировом образовательном опыте, в том числе во Франции (Université Savoie Mont Blanc, Chambéry, France), Испании (Universidad Catolica), США (University of Chicago), Германии (North Rhine-Westphalia University) и Финляндии (University of Jyväskylä), проводятся научно-исследовательские работы по расширению современных технологий преподавания английского языка, совершенствованию социальных, лингвистических знаний, навыков и умений студентов, приобретению теоретических основ непрерывного изучения языка, развитию языковых компетенций студентов в данной области.

В последние годы в нашей стране усиливается роль человеческого фактора в социальной жизни населения, обеспечение приоритета науки, занятие целенаправленной, интеллектуальной профессиональной творческой деятельностью с учетом уровня владения английским языком студентов, совершенствуется нормативно-правовая база и проводится обучение английскому языку на основе современных подходов, методов и технологий в инженерной сфере, особенно STEAM (Science, Technology, Education, Art, Mathematics); CLIL (Content and Language and Integrated Learning); CBI (Content Based Instruction); SBI (Subject Based Instruction), и TBI (Task Based Instruction) – это концепции, которые набирают популярность. Важно, что эти технологии являются наиболее удобными и эффективными при ознакомлении студентов с содержанием иноязычного образования. Использование этих технологий позволяет студентам нефилологического образования, в частности горного направления, добиться междисциплинарной интеграции и применить на практике знания, полученные по профессиональным предметам, посредством английского языка. Поэтому, как отметил наш Президент Ш.М.Мирзиёев: «Настало время создать в нашей стране новую систему преподавания иностранных языков, которая станет прочным фундаментом на будущее. Поскольку мы поставили

перед собой цель построить конкурентоспособную страну, отныне выпускники школ, лицеев, колледжей и высших учебных заведений должны в совершенстве владеть как минимум 2 иностранными языками. Это жесткое требование должно стать главным критерием деятельности руководителя каждого образовательного учреждения»<sup>16</sup>. Роль лексического материала (текста) важна в сборе студентами информации по различным темам, необходимых сведений по различным предметам и использовании их в речевых ситуациях. С помощью лексического материала развивается и совершенствуется профессиональная лексическая компетенция студентов горного направления. Помимо развития профессиональной лексической компетенции студентов по английскому языку на основе источников этой сферы, возможна интеграция знаний, умений и навыков из различных специальных дисциплин, а также интеграция их других языковых компетенций. Это актуально в повышении эффективности образовательного процесса, в практическом применении знаний, полученных по предметам.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3151 от 27 июля 2017 года «О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и сфер экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием», Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 610 от 11 августа 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-

---

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son Qarori // <https://darakchi.uz/oz/119207>

образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В последние годы преподавание английского языка стало одним из главных принципов. В европейских странах, в частности, Брайан Палтридж, занимавшийся научной и творческой деятельностью в Великобритании, проводил исследования по развитию читательской компетенции студентов<sup>17</sup>. Также Энн Бёрнс, соотечественница Брайана, подняла вопрос о значении чтения в развитии профессиональной лексической компетенции студентов нефилологического образования с помощью отраслевой учебной литературы<sup>18</sup>. Анджела Чемберс поддержала идею развития читательской компетенции студентов путем подготовки дополнительных учебных материалов<sup>19</sup>. Если ученый-языковед из Новой Зеландии Ж.К. Ричардс создал ряд научных работ, посвященных проблемам и решениям в обучении английскому языку как второму языку, то мы можем подтвердить, что британский учёный-лингвист Пол Нэйшн в нескольких своих исследованиях исследовал словарь ESP<sup>20</sup>. Ряд ученых, таких как Б. Авалос, Ф. Файез, Д. Литтл, Ф. Одойер, Дж. Трим, П. Валакс выдвинули научно-теоретические мнения о значении CEFR в совершенствовании профессиональных навыков будущих учителей иностранного языка<sup>21</sup>. Проблемы, связанные с внедрением в систему образования, и пути их решения обсуждаются в научных исследованиях таких ученых, как Ж.С. Алдерсон, Ю.Джин, К.Савски, Э.Шолами, Дж.Вейр, Г.Вестоф<sup>22</sup>.

---

<sup>17</sup> Paltridge B. *Discourse Analysis* 2-nd edition. – London: Bloomsbury Press, 2012. – 297p.

